

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7
ISSUE 1

2026

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 7, ISSUE 1



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессори, филология фанлари
доктори, (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,
PhD (Миср Араб Республикаси)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)
по философии (Узбекистан)

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,
Академии искусств Узбекистана, доктор
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор филологических наук (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при
Академии наук Республики Узбекистан, доктор
философских наук (PhD), доцент

ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)
по философии (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of
Egypt)

MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,
PhD (Arab Republic of Egypt)

FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences
(Uzbekistan)

AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in
Philosophical Sciences, Docent

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Norov Toji Omonovich ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
4. Амиров Азамат Одил угли СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	33
6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
8. Bekchanova Manzura Shuxratovna IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
9. Archabayeva Nargiza Nasimovna LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040
www.tadqiqot.uz


Tangirov Nizom Abduraxmonovich

O‘zbekiston Milliy universiteti,
“Falsafa” kafedrasida dotsenti, f.f.b.f.d (PhD)
E-mail: tangirov.noosphere@gmail.com

Kadirova Guzal Nuritdinovna

O‘zbekiston Milliy universiteti “Falsafa”
kafedrasida mustaqil izlanuvchisi
E-mail: qodirovagozal1986@gmail.com

**OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007798>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o‘zbek teatrshunosligi fanining yirik namoyandasi, akademik Mamajon Rahmonovning milliy teatr san’ati tarixi va nazariyasini o‘rganish sohasidagi ilmiy faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada Mamajon Rahmonovning o‘zbek milliy teatrining shakllanishi, taraqqiyoti va tarixiy bosqichlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlari tahlil qilingan. Xususan, olimning «Hamza va o‘zbek teatri», «O‘zbek teatri tarixi», «O‘zbek teatri», shuningdek teatr tanqidchiligi, dramaturgiya va sahna san’atiga bag‘ishlangan maqola va monografiyalari asosida uning teatrshunoslik ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Shuningdek, maqolada, Mamajon Rahmonovning Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi va uning o‘zbek teatri rivojidagi o‘rnini tadqiq qilishdagi xizmatlari alohida tahlil qilingan. Olim Hamza dramaturgiyasi va teatr faoliyatini chuqur o‘rganib, uni milliy teatrning shakllanishidagi yetakchi shaxs sifatida baholagan va uning teatr tanqidchiligi sohasidagi faoliyati ham tahlil qilingan. Mamajon Rahmonovning maqolalari va ensiklopedik tadqiqotlari orqali o‘zbek teatrining ijodiy jarayonlari, sahna madaniyati, aktyorlik mahorati va milliy dramaturgiya taraqqiyoti haqida muhim ilmiy xulosalar shakllanganligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: teatr san’ati, san’atshunoslik, drama, poeziya, spektakl, o‘zbek adabiyoti, o‘zbek teatri tarixi, ijodiy meros, truppa.

Nizom Abdurakhmonovich Tangirov

Associate Professor of the Department of Philosophy,
National University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
E-mail: tangirov.noosphere@gmail.com

Guzal Nuritdinovna Kadirova

Independent Researcher of the Department of Philosophy,
National University of Uzbekistan
E-mail: qodirovagozal1986@gmail.com

THE ROLE OF SCHOLAR MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK THEATRICAL ART

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the scholarly activities of the prominent Uzbek theater scholar and academician Mamajon Rahmonov in the field of studying the history and theory of national theatrical art. The paper examines the researcher's scientific investigations focused on the formation, development, and historical stages of Uzbek national theater. In particular, based on his fundamental works *Hamza and Uzbek Theater*, *History of Uzbek Theater*, *Uzbek Theater*, as well as his articles and monographs dedicated to theater criticism, dramaturgy, and stage art, the article highlights his significant contribution to the development of theater studies.

The article also provides a detailed analysis of Mamajon Rahmonov's contribution to the study of the creative heritage of Hamza Hakimzoda Niyoziy and his role in the development of Uzbek theater. The scholar thoroughly examined Hamza's dramaturgy and theatrical activities, recognizing him as one of the leading figures in the formation of the national theater. Furthermore, the study analyzes Rahmonov's activities in the field of theater criticism. It demonstrates that his articles and encyclopedic studies played an important role in shaping scholarly conclusions regarding the creative processes of Uzbek theater, stage culture, acting skills, and the development of national dramaturgy.

Keywords: theatrical art, art studies, drama, poetry, performance, Uzbek literature, history of Uzbek theater, creative heritage, troupe.

Тангиров Низом Абдурахмонович

Доцент кафедры философии

Национального университета Узбекистана,

доктор философии (PhD) по философским наукам

E-mail: tangirov.noosphere@gmail.com

Кадырова Гузаль Нуритдиновна

Самостоятельный соискатель кафедры философии

Национального университета Узбекистана

E-mail: qodirovagozal1986@gmail.com

РОЛЬ УЧЁНОГО МАМАЖОНА РАХМОНОВИЧА РАХМОНОВА В РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу научной деятельности выдающегося представителя узбекского театроведения, академика Мамажона Рахмонова, в области изучения истории и теории национального театрального искусства. В статье рассматриваются научные исследования ученого, направленные на изучение становления, развития и исторических этапов узбекского национального театра. В частности, на основе его фундаментальных трудов «Хамза и узбекский театр», «История узбекского театра», «Узбекский театр», а также статей и монографий, посвящённых театральной критике, драматургии и сценическому искусству, раскрывается вклад Мамажона Рахмонова в развитие театроведческой науки.

Кроме того, особое внимание уделяется анализу научных заслуг ученого в исследовании творчества Хамзы Хакимзаде Ниязи и его роли в развитии узбекского театра. Мамажон Рахмонов глубоко изучил драматургию и театральную деятельность Хамзы, рассматривая его как одну из ключевых фигур в становлении национального театра. Также анализируется деятельность ученого в области театральной критики. Показано, что благодаря статьям и энциклопедическим исследованиям Мамажона Рахмонова были сформулированы важные научные выводы о творческих процессах узбекского театра, сценической культуре, актёрском мастерстве и развитии национальной драматургии.

Ключевые слова: театральное искусство, искусствоведение, драма, поэзия, спектакль, узбекская литература, история узбекского театра, творческое наследие, труппа.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Teatrshunos olim, akademik Mamajon Rahmonovich Rahmonov san'atshunoslik sohasida o'nlab kitoblar muallifi. Mazkur maqolada biz, ustozning ikki jildlik "Hamza va o'zbek teatri", "O'zbek teatri tarixi" nomli kitoblarini o'rganib, tahlil qildik.

Mamajon Rahmonovich Rahmonov tomonidan yozilgan "Hamza va o'zbek teatri" kitobi 1959-yilda Toshkentda "O'zbekiston adabiyoti" nashriyotida nashr etildi. "Ushbu kitobni yozishdan maqsad – o'zbek xalqining buyuk shoiri, yozuvchisi va dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziyning teatr san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritish, shuningdek, u yozgan qator dramalarni o'rganish, uning yozuvchi sifatidagi mahoratini ko'rsatishdir"[1].

Kitobda Hamza Hakimzoda Niyoziyning teatrda ishlagan yillarida qilgan ishlari, yozgan dramalari soni va ular asosida yaratilgan bir qator pyesalar hamda ularning badiiy estetik qimmati haqida so'z boradi. Ayniqsa, o'sha davrda sahnalashtirilgan "Maysaraning ishi", "Boy ila xizmatchi" kabi betakror dramalari dunyo yuzini ko'radi. Bu holat o'zbek teatr san'atiga yangi o'zgarishlar, janrlar, shuningdek, turli shakllarni olib keladi. Bu o'zgarishlar o'sha paytdagi o'zbek teatr san'ati uchun katta yutuq bo'ldi.

Muhokama. Hamza Hakimzoda Niyoziy nafaqat teatr san'atining, balki o'zbek adabiyotining ham ko'zga ko'ringan namoyandaligidan biridir. Uning xoh she'riy, xoh dramatik shaklda yozgan har bir badiiy asari har qanday adabiyot ixlosmandi e'tiboridan chetda qolmaydi. Dramaturgning adabiyot sohasiga qo'shgan hissasi qancha ko'p bo'lsa, teatr san'ati rivojida ham uning xizmatlari e'tirofga loyiqdir. Shu sababli, o'zbek teatr san'atining rivojlanishi Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi bilan chambarchas bog'liqdir. "Og'ir zamonda davlatni ham, jamiyatni ham xursand qilish juda qiyin vazifa edi. Lekin bu jarayonlarni to'g'ri tahlil qilgan dramaturg o'zbek teatri rivojiga katta hissa qo'shdi. Shuning uchun u o'zbek teatr san'atining shakllanishi va rivojlanishida asosiy kuch bo'lib xizmat qildi" [2,10-b].

Mamajon Rahmonov ham uning ijodini o'rganib, teatr bilan dramaturg nomi o'rtasidagi bog'liqlikni yoritib bera oldi. Hamza Hakimzoda Niyoziy yaratgan yangiliklar va repertuarlar o'zbek teatr san'atini boyitishda ham nazariy, ham amaliy manba bo'lib xizmat qildi va hozirgacha o'z badiiy qimmatini yo'qotmasdan davom etmoqda. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z davrining fidoyisi, odamlar dardiga darmon, shuningdek, o'zbek teatr san'atining peshqadami edi. Zero, totalitar tuzum davrida uning nomi qora harflar bilan yozilgan bo'lsa-da, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, uning nomi oqlandi.

Olim Mamajon Rahmonov ham dramaturgning ijodiy jihatlarini, buyuk qalam sohibi ekanligini, shuningdek, o'zbek teatrining unutilmas ruhi bo'lib qolganligini ta'kidlashni o'rinli deb topdi. Ustozning teatr san'atiga oid kitoblari orasida shunday badiiy qimmatga ega bo'lgan adabiyotlarning ro'yxati uzun. Uning yozma manbalaridan biri orqali O'rta Osiyoda qadimdan shakllanib, rivojlanib kelayotgan o'zbek teatr san'atining yutuqlari, uning barcha unsurlari va xususiyatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lasiz.

Xususan, uning "O'zbek teatri" (qadimgi davrlardan XVIII asrgacha) va "O'zbek teatri tarixi" (XVIII asrdan XX asr boshlarigacha) ilmiy monografiyalari teatrshunoslik fanida alohida qimmatga ega. "Ushbu tadqiqotlar orqali Mamajon Rahmonov O'zbekistonda madaniyat va san'at, xususan, teatr san'ati nafaqat "Oktabr inqilobi" dan keyin, balki juda qadim zamonlarda, ikki yarim ming yil avval ham mavjud bo'lganligini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab berdi. Shu asar rus tiliga qayta tarjima qilingach, 1983-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi"[3].

Olimning "O'zbek teatri tarixi" kitobi besh bobdan iborat bo'lib, "O'zbek teatrining ilk manbalari", "Qadimgi O'rta Osiyoda ellin teatri (miloddan avvalgi III-I asrlar)", "Kushonlar davriga bir nazar", "Ilk o'rta asrlar teatri (V asrdan X asrgacha)", "Feodalizm taraqqiyoti va o'zbek teatrining mashaqqatli yo'llari (X asrdan XVIII asrgacha)" deb nomlangan turkumlardan iborat. Kitobda Qo'qon shahridagi birinchi o'zbek teatr truppassi va uning asoschisi, buyuk dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati haqida hikoya qilinadi.

"O'zbek teatri tarixi" kitobining ikkinchi jildida XVIII asrdan keyin O'rta Osiyoda o'zbek teatrshunosligi sohasidagi voqealarning rivojlanishi haqida so'z boradi. Bu vaqtga kelib, teatr san'atining qanday yaratilganligi, teatrshunoslik sohasida yangi omillarning paydo bo'lishi, ya'ni

turli janr va shakllarning paydo bo'lishi va boshqa shunga o'xshash o'zgarishlar hamda ularning asoschilari haqida so'z boradi.

Yuqoridagi har ikki kitobning mazmun-mohiyati o'zbek teatr san'atining rivojlanish bosqichlari bilan qamrab olingan. Olim Mamajon Rahmonov o'zbek teatri tarixini ana davrlashtirish orqali o'rganib, uning uzoq tarixga ega ekanligini ilmiy jihatdan ta'kidladi. Bu o'zbek teatri sohasida katta qadam edi. Bu kitoblardan tashqari, uning yuzlab maqolalarida o'zbek teatrining ijodiy faoliyati batafsil aks ettirilgan.

Shuning uchun olimning "O'zbek teatri tarixidan", "Kushonlar davri teatr san'ati", "Qadimgi o'zbek teatri tarixidan", "O'zbek teatri me'mori", "Navoiyning sahnadagi asarlari" turkum maqolalari milliy teatrimizning qadimiy san'at turlaridan biri ekanligini isbotlaydi. Maqolalarda har bir davr teatr olamiga oid sahifalar o'rin olgan. Ushbu sahifalar haqida biz o'rgangan keyingi maqolalarda batafsilroq ma'lumot beramiz.

Mamajon Rahmonovning teatrshunoslik sohasini qamrab olgan kitoblari qanchalik mazmunan boy bo'lsa, maqolalari ham shunchalik betakrordir. Teatr san'ati va teatr tanqidchiligi rivojiga oid qator maqolalari bilan respublikamizning qator gazeta va jurnallarida faol ishtirok etib kelgan. Uning har bir maqola va monografiyalarida o'zbek teatr sohasidagi bir qator yangiliklar bilan tanishasiz. Albatta, bu ham olimning katta yutug'idir. Teatr san'ati sohasida hali hech kim bu darajaga yetmagan. Chunki, bunday muvaffaqiyat zamirida uzoq va mashaqqatli mehnat yotadi. San'atshunoslik fanining rivojlanishi uchun M. Rahmonov uzoq va mashaqqatli yo'llarni bosib o'tdi. Bu yo'llarning har bir qadami Mamajon Rahmonovdan kuch va irodani talab etardi. Bu nafaqat san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni, balki uning hayoti va ilmiy faoliyati bilan biroz tanish bo'lgan kishilarni ham hayratga soladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Olimning "O'zbekiston madaniyati" gazetasining 1966-yil 23-iyul sonida bosilgan "G'ulom Zafariy dramaturgiyasi va uning sahna tarixi" maqolasida dramaturgning ijodiy hayoti, she'riyat, drama, musiqa va teatrdagi faoliyati, shuningdek, G'ulom Zafariyning o'zbek teatri tarixidagi o'rni va u yozgan pyesalar tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

"XX asrning 20-yillaridagi o'zbek teatri tarixini G'ulom Zafariysiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki u o'sha yillarning ko'zga ko'ringan teatr arboblardan biri sifatida ko'pchilik tomonidan hurmatga sazovor edi. Shu bilan birga, u o'zbek teatri tarixida nafaqat dramaturg, balki Hamza Hakimzoda Niyoziydan keyin o'zbek musiqali teatrining asoschilaridan biri sifatida ham qolganligi alohida e'tirof etiladi. Uning ijodini o'rganish o'sha davrdagi eng murakkab va mas'uliyatli masalalardan biri edi. Chunki shoir yashab ijod etgan davr og'ir davr, sinfiy guruhlar taranglashgan davr edi"[4, 48-49 B].

Zafariyning dramaturgiya olami juda go'zal va nafis edi. U eski dunyoning dahshatli hayotini yomon ko'rardi. Biroq ana shu keskin qarama-qarshiliklarga qaramay, uning dramaturgiyasi ajralib tura boshladi va u mavzu jihatidan takrorlanmas dramalar, kichik hajmli musiqali sahna asarlari yozdi. 1916–1920-yillarda dramaturg ijodi ayniqsa ravnaq topdi. Bu yillarda u "Baxtsiz talaba", "Halima", "Bahor", "Binafsha rang", "Turg'unoy", "Tilak", "Ona qabri ustida" kabi katta-kichik musiqiy asarlar yaratdi. 1920-yilda yaratilgan "Halima" musiqali dramasi katta muvaffaqiyat qozondi. Bu dramada eskidan ozod bo'lish, yangi hayotga kirish kabi masalalar ko'rsatiladi [5].

Maqolada shu dramadan parcha ham keltirilgan. Muallif Mamajon Rahmonov bir maqola hajmida shunday katta asar mazmunini ochib bera olgan. Mamajon Rahmonov o'zbek teatr san'ati va adabiyotini rivojlantirishda G'ulom Zafariyning hayoti va ijodiy merosini chuqurroq o'rganish zarurligini e'tirof etgan.

Mamajon Rahmonovning ijodining navbatdagi namunasi 1976-yilda O'zbek Sovet Ensiklopediyasining VII jildida chop etilgan "Moskva o'zbek drama studiyasi" maqolasidir. Maqolada ushbu studiya haqida to'liq ma'lumot berilgan.

"Moskva o'zbek teatr studiyasi" o'zbek professional aktyorlari va rejissorlarini tayyorlaydigan maktab edi. O'zbekiston hukumatining qarori bilan 1924-yilda Moskvada tashkil etilgan. 1924–1927-yillarda va 1927–1930-yillarda ikki marta kadrlar tayyorlagan. Mannon Uyg'ur, Y. Bobojonov, M. Muhamedov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, T. Sultonova, N. Nazrullayev, Sh. Dayumov, S. Tabibullayev, Xodjishdosh Islomov, X. Latipov, Erkasori Karim va

boshqalar. Ularga V. Kanel, L. Sverdlin, R. Simonov, I. Tolchanov, O. Basov kabi buyuk rus san'atkorlari sahna san'atidan saboq berganlar. O'tish davrida o'zbek aktyorlari birinchi studiyada "Exo", "Revizor", "Hasis", "Soqchining uyqusi" va ikkinchi studiyada "Qon va suv", "Majburiy tabib", "Skapening nayranglari" kabi spektakllarni namoyish etishdi.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar o'zbek teatr san'ati Moskva teatr to'g'risida ma'lumot beradi. "Moskva o'zbek drama studiyasi" tashkil etilganidan ko'p o'tmay, 1935-yilda Muhiddin Qoryoqubov tashabbusi va O'zbekiston hukumati qarori bilan Moskva konservatoriyasi qoshida "Moskva opera studiyasi" tashkil etildi. Bu studiya o'zbek operasi uchun vokalchilar, dirijyorlar, kompozitorlar va baletmeysterlar tayyorlaydigan maktab edi.

1935–1937-yillarda Muhiddin Qoriyoqubov, Halima Nosirova, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burdonov, S. Yudakov, B. Mirzayev, Karim Zokirovlar ta'lim oldilar. 1939-yilda bu studiya ikkinchi marta tashkil etildi. Bu davrda N. Doshimov, S. Xo'jayeva, E. Jamilova kabi yoshlar ta'lim oldi.

Urush yillarida studiya o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatdi. 1947-yilda qayta ochilgan. Shu yili keyingi guruh vakillari S.Dobulova, Sh.Rahimova, S.Yarashev, A.Azizov va boshqalar tahsil olishdi. Studiya 1951-yilgacha o'z faoliyatini davom ettirdi. "Ma'lumki, ushbu studiya tashkil etilgandan so'ng, unga rahbarlik qilgan M. Rahmonov keyinchalik ushbu bo'limga rahbar etib tayinlangan. Uning tashabbusi bilan studiya yanada yuqori natijalarga erishdi" [6, 48-49 B].

Xulosa. Yuqorida tilga olingan kitoblar, maqolalar va monografiyalar haqida shunday xulosa qilish mumkinki, bu noyob qo'lyozmalar hozirgacha o'z qiymatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Mamajon Rahmonovni o'zbek teatr san'ati taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. O'zbek teatr san'ati tarixi rivojida har ikki studiyani tashkil etish va rivojlantirishda Mamajon Rahmonovning tashabbusi katta. Bu ustaxonalar o'zbek san'atining barcha sohalaridagi islohotlari natijasida bugungi kunda rivojlanib borayotgan o'zbek milliy san'atimiz yutuqlarining asosidir.

Mamajon Rahmonov tomonidan nashr qilingan kitob, monografiya va maqolalarda teatr san'ati tarixi chuqur yoritilgan. Xususan, Hamza teatri o'zbek madaniyatining markaziga aylanib, o'zbek adabiyoti va san'atining eng yaxshi an'alarini rus teatri tajribasi bilan uyg'unlashganligi to'g'risida malumot beradi. Hozirgi kunda bu an'ana davom etmoqda. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ushbu teatr nomi "O'zbek milliy drama teatri" maqomiga o'zgartirildi.

Mamajon Rahmonovning ilmiy ma'naviy me'ros hamda maqolalarini ko'rib chiqib, qolaversa boshqa tahlil qilingan ilmiy manbalar orqali hozirgi o'zbek teatr san'ati tarixining sirlarga naqadar boy ekanligining guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. "O'zbek opera va balet teatrining taraqqiyot yo'llari". "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1950-yil, II.VI.
2. M. Rahmonov. "Teatr" O'zbek sovet ensiklopediyasi, 1978-yil, X jild, 10-bet.
3. M. Rahmonov. "O'zbek teatri" (qadimgi davrlardan XVIII asrgacha) va "O'zbek teatri tarixi" (XVIII asrdan XX asr boshlarigacha). O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1975.
4. O'zbek teatri tarixidan "Sharq yulduzi" jurnali, 1957-yil, 9-son, 48-49-betlar.
5. "O'zbek sovet teatrining yaratilishi". "Sharq yulduzi" jurnali, 1958-yil, 3-son, 48-49-betlar.
6. M. Razmolov "O'lka namunali drama teatri", O'zbek Sovet Ensiklopediyasi, 1978-yil, XI jild, 14-bet.
7. M. Rahmonov. "Hamza teatri", O'zbek sovet ensiklopediyasi, 1979-yil, XII jild, 47-bet.
8. M. Rahmonov, "Teatrshunoslik", O'zbek sovet ensiklopediyasi, X jild, 1978-yil, 4-bet.
9. G'ulom Zafariy dramaturgiyasi va uning sahna tarixi. "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1966, 23, VII.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000